

BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARNI O'QITISHNING YANGI INNOVATSION METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Norova Nargiza Xalmamat qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

E-mail: norovanargiza592@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga Tabiiy fanlarni o'qitishda yangi innovatsion metodlar va texnologiyalar haqida yoritilgan. Ularni dars davomida qo'llash, natijalarni analiz-sintez qilish, dars samaradorligini kuzatish bilan bog'liq solishtirma mulohazalar olib borilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, Tabiiy fan, metod, texnologiya, yosh fiziologiyasi, dars, individual va guruhda ishlash.*

NEW INNOVATIVE METHODS AND TECHNOLOGIES OF PRIMARY CLASS NATURAL SCIENCE TEACHING

Norova Nargiza Khalmamat kizi

Nukus State Pedagogical Institute

E-mail: norovanargiza592@gmail.com

Abstract. this article describes new innovative methods and technologies in teaching natural sciences to elementary school students. Comparative considerations related to their application during the lesson, analysis-synthesis of the results, and monitoring of the effectiveness of the lesson were conducted.

Keywords: *primary education, natural science, method, technology, youth physiology, lesson, individual and group work.*

Unib o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama yetuk inson bo'lishi jamiyatning rivojlanishidagi eng asosiy omillardan biridir. Shu bilan bir qatorda ularning ijtimoiy faollashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida yoshlar uchun ajratilgan barcha sharoitlar shaxsni rivojlantirish, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Avvalo, o'quvchi bunday yuksak natijalarga erishishi uchun ta'lim berishni ilk davrlaridanoq mukammal tarzda amalga oshirishi zarur. Zeroki, ulkan natijalar kichik qadamlardan boshlanadi. Bunda o'quvchilarga atrof-muhitni o'rganish, o'quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirish eng samarali usul hisoblanadi. Bunday o'qitish ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'raligicha o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Tabiiy fanlarni o'rganish oila davrasida atrof-muhitni o'rganishdan boshlanadi, ya'ni, o'zining uy-joyi, ko'cha, mahalla, qishloq va shu joyning hayvonot va o'simliklar olamini tahlilidan boshlanadi. Bola maktabda ta'lim olib boshlaganidan so'ng, olgan bilimlarini asosli va aniq manbaga ega bo'lganlarini saralab oladi. Bu ma'lumotlarni qay darajada sifatli o'zlashtirish o'qituvchi salohiyati va dars davomida mohirona qo'llay olgan metod, texnologiya va ta'limni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Zamonaviy didaktikada ta'limni tashkil etish turlari 3 ga bo'linadi: frontal, guruhli va individual.

• Frontal ta'limda o'qituvchi butun sinfdagi o'quv - bilish faoliyatini boshqaradi. Ular biror bir vazifa ustida ish olib boradi.

• Guruhli shaklda o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning guruhlardagi o'quv - bilish faoliyatini boshqaradi. Ularni bo'g'inli, brigadali, kooperirovan (ko'chma) va diferensialli guruhli shaklga bo'lish mumkin.

- Individual ta'limda o'quvchilar boshqa o'quvchilar bilan bog'liqlikda o'quv - bilish faoliyatini amalga oshiradi. Ya'ni sinf butun topshiriqni, har bir o'quvchi alohida mustaqil bajaradi [1].

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Finlandiya ta'lim tizimida quyidagicha usulda bilim berish amalga oshiriladi;

- Hayotning barcha bosqichlarida hamma uchun ta'lim olish;
- O'yin va g'amxo'rlik bilan bolalarni tayyorlash;
- Kelajak uchun kerakli bilim va ko'nikmalarni o'rgatish qobiliyatlarini shakllantirish;
- Kasbiy mahoratga individual yo'llar orqali tayyorlash;
- Akademik va amaliy tadqiqotlar yuqori daraja ko'tarish;
- Ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirish;
- Sinfdan tashqarida va dunyoda qo'llay olish [2].

Milliy dasturlarimiz va xorijiy mamlakatlar tajribasini integratsiyalash natijasida ko'plab yutuqlarga erishishimiz mumkin. Xorij metod va texnologiyani mahalliyashtirish ta'limni yanada rivojlanishiga hissa qo'shadi.

O'quvchilarga dars o'tish jarayonida ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish kerak. Bundan tashqari ta'lim berish faoliyatida foydalanayotgan metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murakkablik qilmasligi, berilayotgan ma'lumotlar oson o'zlashtirishini inobatga olish zarur. Tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiyalashgan bilimlardan foydalanish, o'quvchilar endi o'zlashtirayotgan bilimlarini to'g'ri va to'liq o'rganishga ko'maklashadi. Bundan tashqari bilimlarni interfaol metodlar asosida berib borish ko'zlangan maqsadga erishishgan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mansurova A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 205 b.
2. Salla Korpela. Education in finland. Ministry for Foreign Affairs. Otavamedia OMA, 2017.

